

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA LEKSIK NOVATSIYALARNING FUNKSIONAL-PRAGMATIK TAHLILI

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i1.010>

Tojiboyeva Mastura Adham qizi

Qo'qon universiteti magistranti

EMAIL: masturayunusova@77gmail.com

ANNOTATSIYA: Hozirgi dunyo tilshunosligida leksik tizimdagi yangilanishlar – yangi ma'nodoshlik va qo'llanish doirasining kengayishi, chet tillardan kirib kelgan so'z birliklarining nutqqa moslashishi global miqyosda faol o'rganilmoqda.. Mazkur tezis ingliz va o'zbek tillarida zamonaviy ijtimoiy, madaniy va texnologik jarayonlar ta'sirida shakllanayotgan leksik novatsiyalarning funksional va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ingliz va o'zbek tillarida leksik yangilanish jarayonining o'xshash va farqli jihatlari misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: leksik novatsiya, pragmatika, funksional tahlil, ingliz tili, o'zbek tili.

ANNOTATION: The updates within the lexical system in contemporary world studies, the expansion of semantic scope and usage domains and the adaptation of foreign lexical borrowings into speech are actively being examined on a global scale. This thesis is devoted to the functional and pragmatic analysis of lexical innovations emerging in English and Uzbek under the influence of modern social, cultural, and technological processes. The study examines the pragmatic value of new lexical units through comparative analysis and examples.

Keywords: lexical novation, pragmatics, functional analysis, English language, Uzbek language.

Til jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan tizim hisoblanadi. Jamiyat hayotida yuz berayotgan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va texnologik o'zgarishlar tilning lug'at boyligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, globallashuv jarayoni, raqamli texnologiyalar va ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivoji natijasida tillarda yangi so'z va iboralar faol ravishda paydo bo'lmoqda. Bu holat ingliz va o'zbek tillarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Leksik novatsiyalar nafaqat yangi tushunchalarni nomlash vositasi, balki nutq jarayonida muhim pragmatik vazifalarni bajaruvchi birlik sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Shu bois leksik novatsiyalarni funksional-pragmatik jihatdan o'rganish bugungi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ingliz tilida leksik novatsiyalar ko'pincha texnologiya, biznes va internet diskursi ta'sirida shakllanadi. Masalan, *selfie*, *startup*, *influencer*, *digital detox*, *work-life balance*,

deepfake, cancel kabi soʻzlar zamonaviy hayot tarzi va ijtimoiy ehtiyojlarni ifodalaydi. Bu birliklar qisqa vaqt ichida kundalik nutqda faol qoʻllanila boshlagan.

Oʻzbek tilida esa leksik novatsiyalar koʻpincha oʻzlashma soʻzlar, soʻz yasash jarayoni yoki mavjud birliklarning maʼnosini kengaytirish orqali yuzaga keladi. *Onlayn taʼlim, raqamlashtirish, kontent yaratuvchi, masofaviy ish, blogger, targetolog, deadline, anomal, reels, brend* kabi birliklar bunga misol boʻla oladi. Ushbu birliklar nutqda maʼlum pragmatik maqsadga xizmat qilib, soʻzlovchining zamonaviylikka munosabatini ifodalaydi.

Oʻzbek tilshunosligiga tilga yangi kirib kelgan leksik novatsiyalar boʻyicha tadqiqot olib boorish XXI asrda boshlangan va bu mavzu boʻyicha ish olib borgan olimlar hozircha sanoqlidir. Tursunov.U, Muxtorov.J, Rahmatullayev.Sh, Shoabdurahmonov. Sh. Kabi olimlar oʻzbek tilining oʻz va oʻzlashgan leksika qatlamlarini tizimli oʻrganganlar.

Ingliz tili tilshunosligida leksik novatsiyalarni oʻrganish sohasi ancha rivojlangan sohadir. Misol qilib keltiradigan boʻlsak, John Algeo va John Ayto kabi olimlar neologizmlar tarixi va tasnifi haqida izchil asarlar yozganlar. Oxford English dictionary (OED) va uning onlayn versiyasi har yili yuzlab yangi soʻz va maʼnolarni roʻyxatga oladi va ularning qoʻllanilishini izchil kuzatib boradi. Ingliz lugʻatshunoslogida esa, Merriam-Webster, Collins kabi nashriyotlar har yili “Yilning soʻzi”ni tanlaydi va yangi soʻzlarni lugʻatga kiritadi. Leksikograf guruhlar mass-media, internet va kitoblardan namunalar toʻplaydi va yangi leksikni tahlil qiladi. David Crystal kabi tilshunoslar internet tili va u tilga taʼsirini keng oʻrgangan olimlardan biri hisoblanadi.

Ikki tilni qiyoslab fikr yuritsak, ingliz tili leksik novatsiyalarni oʻrganishda juda ham rivojlangan va izchil harakatlar olib boradi va oʻzbek tili esa, rivojlanayotgan sohadir. Ingliz tilida yangi soʻzlarni oʻrganish uchun asosiy manba global texnologiya, fan, madaniyat, internet asosiy manbadir. Oʻzbek tilida esa, ijtimoiy-siyosiyboʻzgarishlar, texnologiyaning kirib kelishi asosiy manbadir. Shuningdek, ingliz va rus tillaridan oʻzlashmalar sezilarli.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, ingliz va oʻzbek tillarida leksik novatsiyalar asosan kommunikativ ehtiyoj va nutq vaziyatiga mos ravishda shakllanadi. Har ikkala tilda yangi leksik birliklar nutqning taʼsirchanligini oshirish, axborotni ixcham va aniq yetkazish vazifasini bajaradi.

Funksional-pragmatik tahlil yangi soʻzlarning qoʻllanishi soʻzlovchining yosh xususiyati, ijtimoiy mavqei va nutq muhitiga bevosita bogʻliqligini koʻrsatdi. Ingliz tilida leksik novatsiyalar norasmiy diskursda tezroq ommalashsa, oʻzbek tilida ular asta-sekin rasmiy nutqqa ham kirib bormoqda. Bu holat har ikki tilning pragmatik moslashuv imkoniyatlarini namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va oʻzbek tillarida leksik novatsiyalar til taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Ular nutqda funksional va pragmatik vazifalarni bajarib, tilning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi. Qiyosiy tahlil har ikki tilda leksik yangilanish jarayoni faol kechayotganini koʻrsatdi. Mazkur tezisda amalga oshirilgan qiyosiy

funksional-pragmatik tahlil shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillarida paydo bo'layotgan yangi so'z va iboralar nafaqat yangi tushunchalarni, balki murakkab pragmatic vazifalarni bajaruvchi muhim kommunikativ vositalardir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, har ikkala tilda leksik novatsiyalar, birinchi navbatda, nutqning ta'sirchanligini oshirish, axborotni ixcham va aniq yetkazish, so'zlovchining zamonaviylikka, yosh xususiyatiga, ijtimoiy mavqeiga va nutq muhitiga bo'lgan munosabatini ifodalash vazifasini bajaradi. Ingliz tilida, global diskursning kuchli ta'siri tufayli, yangi so'zlar (masalan, influencer, deepfake, cancel) norasmiy muhitda tezroq ommalashib, keyinchalik rasmiy nutqqa ham kirib bormoqda. O'zbek tilida esa leksik yangilanish jarayoni ko'proq o'zlashma (ingliz va rus tillaridan) va mavjud so'z yasalishi modellari (masalan, kontent yaratuvchi, raqamlashtirish) orqali amalga oshirilib, yangi birliklar asta-sekin rasmiy nutqda ham o'z o'rnini topmoqda. Bu holat har ikkala tilning ijtimoiy ehtiyojlarga pragmatik jihatdan moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Rahmatullayev, Sh. (2006). Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent: Fan.
2. Tursunov, U., Muxtorov, J., & Rahmatullayev, Sh. (1992). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi.
3. Urmonova, M. (2025). Types of neologisms and their classification in English and Uzbek. International Journal of Science and Technology, 2(4), 108–109.
4. Algeo, J. (1991). Fifty years among the new words: A dictionary of neologisms, 1941–1991. Cambridge University Press.
5. Crystal, D. (2004). Language and the Internet (2nd ed.). Cambridge University Press.
6. Merriam-Webster. (2023). Word of the Year 2023: 'Authentic'. Retrieved January 27, 2026
7. Oxford English Dictionary (OED) Online. (2023, September). New word entries. Retrieved January 27, 2026